

LOGOPEDIK SHAXOBCHALAR, LOGOPED O’QITUVCHILAR OLDIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Davronova Shaxnoza Maxkamali qizi

*Nanangan Davlat Pedagogika Instituti Maxsus pedagogika logopediya
1-kurs magistranti shaxnozadavronova 21@gmail.com.*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21153001>

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasidagi logopedik shaxobchalarning mavjud holati va logoped o'qituvchilar duch keladigan tizimli muammolar nazariy tahlil asosida ko'rib chiqiladi. Kadrlar yetishmasligi, moddiy-texnik ta'minot kamchiliklari, zamonaviy diagnostika vositalarining cheklanganligi, ota-onalar bilan hamkorlikdagi qiyinchiliklar va inklyuziv ta'lim muhitining yangi talablari tahlil qilingan. Yechim sifatida raqamli texnologiyalarni joriy etish, uzluksiz malaka oshirish tizimini takomillashtirish, interdisiplinar hamkorlik va ota-onalarni reabilitatsiya jarayoniga faol jalb etish tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: logopedik shaxobcha, logoped o'qituvchi, nutq buzilishlari, inklyuziv ta'lim, nutqiy reabilitatsiya, diagnostika, kadrlar tayyorlash, raqamli texnologiyalar, ota-onalar hamkorligi, maxsus pedagogika.

Аннотация: В данной статье на основе теоретического анализа рассматривается современное состояние логопедических кабинетов в Республике Узбекистан и системные проблемы, с которыми сталкиваются учителя-логопеды. Проанализированы нехватка кадров, недостатки материально-технического обеспечения, ограниченность современных диагностических средств, трудности взаимодействия с родителями и новые требования инклюзивной образовательной среды. В качестве решений предложены: внедрение цифровых технологий, совершенствование системы непрерывного повышения квалификации, межведомственное сотрудничество и активное вовлечение родителей в реабилитационный процесс.

Ключевые слова: логопедический кабинет, учитель-логопед, нарушения речи, инклюзивное образование, речевая реабилитация, диагностика, подготовка кадров, цифровые технологии, сотрудничество с родителями, специальная педагогика.

Abstract: This article examines the current state of speech therapy offices in the Republic of Uzbekistan and the systemic challenges faced by speech therapist teachers, based on theoretical analysis. Issues including personnel shortages, inadequate material and technical provision, limited access to modern diagnostic tools, difficulties in parental cooperation, and new demands of the inclusive educational environment are analysed. As solutions, the article proposes the integration of digital technologies, improvement of the continuous professional development system, interdisciplinary collaboration, and active involvement of parents in the rehabilitation process.

Keywords: speech therapy office, speech therapist teacher, speech disorders, inclusive education, speech rehabilitation, diagnostics, specialist training, digital technologies, parental cooperation, special pedagogy.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini isloh qilish va inklyuziv ta’limni keng joriy etish siyosati yildan yilga yanada kuchayib bormoqda. 2020-yilda qabul qilingan “Inklyuziv ta’limni rivojlantirish to‘g‘risida”gi qaror hamda tegishli me‘yoriy hujjatlar asosida turli rivojlanish xususiyatlariga ega bo‘lgan bolalarni umumta’lim muassasalariga qamrab olish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu jarayonda logopedik xizmat tizimi — ya‘ni nutq buzilishlarini o‘z vaqtida aniqlash, korreksiya qilish va profilaktika qilish bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar hamda maxsus jihozlangan shaxobchalar tarmog‘i — hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Logoped o‘qituvchi — bu nafaqat nutq buzilishlarini diagnostika qiluvchi, balki uzoq muddatli korreksion reabilitatsiya olib boruvchi, bolaning umumiy ijtimoiy-kommunikativ rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi kasbiy mutaxassis. Ammo bugungi kunda logoped o‘qituvchilar o‘z kasbiy vazifalarini to‘liq va sifatli amalga oshirishda bir qator tizimli to‘siqlarga duch kelmoqda. Mazkur muammolar yakka holda emas, balki o‘zaro bog‘liq tizim sifatida namoyon bo‘lib, ularni faqat kompleks yondashuv orqali hal etish mumkin.

Logopedik shaxobcha — bu maktabgacha ta’lim muassasasi, umumta’lim maktabi yoki tibbiy muassasa tarkibida faoliyat yurituvchi, nutq va til buzilishlariga ega bo‘lgan bolalarga maxsus korreksion yordam ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan ixtisoslashgan xona yoki bo‘limdir. Uning asosiy vazifalari nutq buzilishlarini erta aniqlash (skrinig diagnostikasi), individual va guruhli korreksion mashg‘ulotlarni o‘tkazish, ota-onalar va o‘qituvchilarni maslahat bilan ta‘minlash hamda bola rivojlanish dinamikasini kuzatib borishdan iborat. Logopedik shaxobcha sifatli ishlashi uchun: malakali mutaxassis, kerakli texnik va didaktik jihozlar hamda qulay, bolalar psixologiyasiga mos korreksion muhit.

Ikkinchi muammo — logopedik shaxobchalarning moddiy-texnik jihozlanish darajasining pastligi. Zamonaviy logopedik amaliyot uchun zarur bo‘lgan qurilmalar orasida nafas va ovoz treningi uchun asboblari, ko‘zgu va kuzatuv paneli, didaktik o‘yinchoqlar to‘plami, nutqni vizuallashtiruvchi dasturiy ta‘minot hamda artikulyatsion massaj uchun maxsus vositalar mavjud bo‘lishi kerak. Amaliyotda esa ko‘pgina shaxobchalarda faqat an‘anaviy ko‘zgu va bir nechta didaktik kartochkalardan iborat minimal jihozlanish uchramoqda. Bu holat logoped mutaxassislarning metodologik imkoniyatlarini keskin toraytiradi va ish samaradorligini pasaytiradi.

Uchinchi muammo — diagnostika vositalarining cheklanganligi va standartlashtirilmagan holati. Nutq buzilishlarini aniq tasniflash va ularning chuqurlik darajasini belgilash uchun ilmiy asosda ishlab chiqilgan, o‘zbek tiliga to‘liq moslashtirilgan standartlashtirilgan diagnostika protokollari hali yetarli darajada yaratilmagan. Ko‘pchilik logopedlar xorij manbalari asosida tuzilgan va ba‘zan o‘zbek tilining fonetik va leksik o‘ziga xosliklarini hisobga olmagan usullar bilan ishlashga majbur bo‘lmoqda. Buning oqibatida bir bolaga turli mutaxassislar tomonidan turlicha tashxis qo‘yilishi yoki buzilish

turi noto‘g‘ri aniqlanishi holatlari uchraydi, bu esa korreksion ishning boshidan noto‘g‘ri yo‘naltirilishiga olib keladi.

To‘rtinchi muammo — ota-onalar bilan samarali hamkorlik o‘rnatishdagi qiyinchiliklar. Korreksion logopedik ish faqat mutaxassis bilan haftada bir necha soatlik mashg‘lot bilan chegaralanmaydi: uning muvaffaqiyati bolaning uyda ham muntazam ravishda mashg‘lotlar olib borilishiga bevosita bog‘liq. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ota-onalarning bir qismi logopedik muammolarni past baholaydi yoki vaqt tanqisligi, bola bilan qanday ishlash haqida bilim yetishmasligi sababli uy mashg‘lotlarini o‘tkazishga intilmaydi. Shu bilan birga, logoped o‘qituvchilari ota-onalar bilan ishlash metodlari bo‘yicha maxsus kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lmaganligi ham bu vaziyatni yanada qiyinlashtiradi.

Beshinchi muammo — inklyuziv ta‘lim muhitidagi yangi va kuchayib borayotgan talablar. Bugungi kunda logoped o‘qituvchi nafaqat an‘anaviy nutq buzilishlari (dislaliya, alaliya, duduqlanish,..) bilan ishlaydi, balki autizm spektri buzilishi, diqqat defitsiti va giperaktivlik buzilishi, intellektual rivojlanishda orqada qolish hamda ikki tilli muhitdagi bolalarga ham yordam ko‘rsatish vazifasini zimmasiga olmoqda. Biroq logopediya bo‘yicha oliy ta‘lim dasturlarida bu holatlarga bag‘ishlangan maxsus kurslar hali to‘liq o‘z aksini topmagan, bu esa logopedlar o‘z kasbiy tayyorgarliklarida sezilarli bo‘shliq borligini his etishiga sabab bo‘lmoqda.

Yuqorida bayon etilgan muammolarning har biriga nisbatan quyidagi tizimli yechimlarni taklif etish mumkin.

Kadrlar yetishmasligi muammosini hal etish uchun, avvalambor, logopediya ixtisosligiga davlat buyurtmasi asosida qabul kvotasini haqiqiy ehtiyojga mos ravishda oshirish zarur. Bundan tashqari, yosh logopedlarning qishloq va hududlarda ishlashini rag‘batlantiruvchi moddiy imtiyozlar tizimini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Parallel ravishda masofaviy o‘qitish formatida logopediya bo‘yicha qayta tayyorlash kurslarini yo‘lga qo‘yish ham kadrlar tanqisligini qisman bartaraf etishga yordam beradi.

Moddiy-texnik muammoiga yechim sifatida logopedik shaxobchalarni jihozlash uchun minimal standart ro‘yxatini davlat darajasida belgilash va uning bajarilishini nazorat qilish mexanizmini yaratish taklif etiladi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning keng imkoniyatlaridan foydalanib, ovozni vizuallashtiruvchi ilovalar, elektron didaktik resurslar va onlayn trenajerlarni bir qator qimmat narxli jihozlarning arzon alternativasi sifatida keng joriy etish mumkin.

Diagnostika muammosini hal etish yo‘li — o‘zbek tili fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini to‘liq hisobga olgan milliy diagnostika metodikalarini va standartlashtirilgan korreksion dasturlarni yaratish. Bu ish logopedlar, lingvistlar va psixologlarning birgalikdagi ilmiy loyihasi ko‘rinishida tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Bunday milliy protokollar korreksion ishning dastlabki bosqichidanoq to‘g‘ri yo‘naltirilishini ta‘minlaydi.

Ota-onalar bilan hamkorlik muammosini bartaraf etish uchun logopedik shaxobchalarda ota-onalar bilan ishlashning tizimli shakllari joriy etilishi kerak: haftalik qisqa konsultatsiyalar, uy vazifalarini rasmiylashtiruvchi individual xarita, mobil messenjerlarda maslahat berish. Bir qator mamlakatlarda muvaffaqiyatli qo‘llanilayotgan ota-onalarga

korreksion mashg’otlar o’tkazish usullarini o’rgatish — O’zbekiston sharoitida ham amaliyotga tatbiq etilishi logopedik yordam samaradorligini ikki barobarga oshirishga qodir.

Inklyuziv ta’lim talablariga javob berish uchun logopediya ta’lim dasturlariga autizm spektri bilan ishlovchi modullarni majburiy ravishda qo’shish, mavjud logopedlar uchun esa mazkur yo’nalishlarda qisqa muddatli malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur. Shuningdek, logoped, psixolog, defektolog va sinf rahbari bir komanda sifatida birgalikda ish olib boruvchi interdisiplinar hamkorlik modelini joriy etish inklyuziv muhitdagi bolalarga ko’rsatiladigan yordamning sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Kasbiy yolg’izlik muammosiga qarshi eng ta’sir etuvchi vosita — logopedlar uchun mintaqaviy va respublika miqyosidagi kasbiy hamjamiyatlarni — shu jumladan, onlayn formatda — tashkil etishdir. Bunday platformalarda mutaxassislar tajriba almashishi, birgalikda muammo yechishi va yangi ilmiy ma’lumotnomalar bilan tanishishi mumkin. Parallel ravishda milliy ilmiy-uslubiy resurs markazini yaratish va uning doirasida logopedik mashg’otlarning namunali ishlanmalarini, videomateriallarini va elektron kutubxonasini shakllantirib borish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Muammolarni bartaraf etish uchun kompleks va tizimli yondashuv talab etiladi. Davlat siyosati darajasida — logoped kadrlar tayyorlash kvotasini oshirish, shaxobchalar uchun jihozlanish standartini belgilash va ularning bajarilishini ta’minlash. Ilmiy-ta’lim darajasida — o’zbek tiliga moslashtirilgan milliy diagnostika va korreksion metodikalarni ishlab chiqish. Amaliy darajada — raqamli texnologiyalar, interdisiplinar hamkorlik va ota-onalarni o’quv jarayoniga jalb etishning keng ko’lamli modellarini joriy etish.

Logoped o’qituvchilar jamiyatning kelajagi hisoblangan bolalarning nutqiy va kommunikativ kamolotida hal qiluvchi rol o’ynaydi. Ularning kasbiy faoliyatini qo’llab-quvvatlash, ish sharoitlarini yaxshilash va kasbiy rivojlanish uchun imkoniyatlar yaratish — bu nafaqat ta’lim tizimi oldidagi vazifa, balki butun jamiyat oldidagi mas’uliyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-fevraldagi “Inklyuziv ta’limni rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmoyishi. – Toshkent, 2020.
2. Xolmatova S. T. O’zbekiston maktablarida logopedik xizmatni tashkil etish muammolari // Maxsus ta’lim masalalari: ilmiy-amaliy jurnal. – 2021. – №4. – B. 18–26.
3. Azamovna, R. G., & Munira, V. (2022). Case Stade and TECHNOLOGY of Using Non-standard Tests in the Development of Educational and Creative Activities. *JournalNX*, 8(12), 277-282.
4. Turg’unpo’latova, D., & Voxobova, M. (2025). Inklyuziv ta’limda logopedik yordamning o’rni. *Science and Education*, 6(5), 350-355.
5. Munira, V. (2025). Alaliya nutq nuqsonli bolalar bilan olib boriladigan turli metodlar. *Science and Education*, 6(2), 283-288.
6. Munira, V. (2025). ALALIA IMPROVISATIONAL METHODS OF PREPARATION FOR WORK ON SPEECH IMPAIRMENT. In *International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences* (pp. 93-97).
7. Vaxobova, M. (2024). O’smirlarning ota-onalari bilan munosabatlaridagi muammolar. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 4, 53-57.
7. Munira, V., & Shoxistaxon, T. (2024). Bolalar nutqining rivojlanishida atrof muhit va oilaning ahamiyati. *Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 15(1), 51-69.